

**YENGIL SANOAT MAHSULOTLARIGA QO`YILADIGAN
TALABLARNING O`ZIGA XOSLIGI**

Ibragimov Otabek Ergashboy o'g'li

Guliston Davlat Universiteti, Ishlab chiqarish fakulteti

Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi

(ishlab chiqarish turlari bo'yicha) texnologiyasi yo'nalishi

2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yengil sanoat mahsulotlariga qo'yiladigan ayrim talablarning bayoni keltiriladi. Ushbu talablar tasniflanib, tegishli xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: madaniyat, yengil sanoat, gigiyena, balans, kiyim.

KIRISH

An'anaviy madaniyat odami hayotida uning jinsi, yoshining va ijtimoiy holati kiyim bilan aks ettirilgan va mustahkamlangan. Masalan, Farg'ona o'zbeklarining an'anaviy kiyimlarida mato va uning rangi bilan ular yoshlarining belgisi mavjud bo'lgan. Shunday bir yashar bolaning kiyimlari aksariyatida och rang paxta matolardan – oq yoki oq ranglari ko'proq matolardan tayyorlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL


Gigiyenik talablarga issiq saqlashligi, havo o'tkazishi, gigroskopikligi (namlanishi), suv qaytarishligi va boshqalar kiradi (1-rasm).

Kiyimning issiq saqlashlik xususiyatlari inson tanasi yuzasidagi issiqlik balansini ushlab turish uchun zarurdir va kiyim paketi (tuzilmasi)ning issiqlikka qarshiligi va uning konstruksiyasiga bog'liqdir¹.

Havo o'tkazuvchanlik kiyim ostidagi havo qatlamining ventilyatsiyasiga va CO₂ (karbonat angidrid gazi)ni chiqarib yuborilishiga xizmat qiladi. Havo almashinish kiyim paketining havo o'tkazuvchanligi va shuningdek ochiq qismlar (bo'yin o'rni, etaklar, yenglar, shamollatish to'rlari, qo'ltiq, yeng o'rni, tagi teshiklari va b.) tufayli amalga oshirilishi mumkin.

Namlanish inson tanasi orqali ajratadigan suv bug'lari so'rilishigiga va tashqi muhitga chiqarilishiga xizmat qiladi. U mato tolalarining namni shimib olishi va uni tashqi muhitga o'tkazish qoiliyatiga bog'liqdir. Suv o'tkazmaslik namdan saqlanish maqsadidaplash ko'rinishidagi kiyimlarning ba'zi xillari uchun zarurdir.

¹ Мурыгин В.Е., Чаленко Е.А. Основы функционирования технологических процессов швейных производства. - М.: Компания Спутник, 2011.



1-rasm. Yengil sanoat mahsulotlariga qo'yiladigan talablar²

Foydalanish talablari uzilishga bo'lgan mustahkamlik, ishqalanishga bo'lgan barqarorlik, ko'p marotaa buklanishga, bo'yalishga, shaklini saqlashni va boshqalarni hisobga oladi. Foydalanishdagi qulaylik kiyilganda qulay bo'lishdan, odam harakatlariga xalaqit qilmasligidan, turli xizmdagi mexanik, kimyoviy, biologik ta'sirlarga va shuningdek ob-havo ta'sirlariga chidamli bo'lishidan iboratdir.

Estetik talablar mahsulotning badiiy shakl berilishini, rangi va tuzilishi bo'yicha material tanlashni o'z ichiga olgan.

To'qimachilik ishlab chiqarish mahsulotining ko'plab turlari va assortimentlari mavjuddir va ularning asosiy qismini inson tanasini yopib turishga mo'ljallangan ko'plab turdagi kiyimlar tashkil etadi.

Kiyim klassifikatsiyasi. Kiyimning ko'plab xillar va assortimentlari mavjuddir, qoidaga muvofiq **kiyim assortimenti** bu ma'lum bir belgilari bilan guruhlariga birlashtirilgan kiyimdir. Birlashtirilishi uchun belgi uning nimaga mo'ljallanganligi va xk. bo'lishi mumkin. Umumiy vazifasi bo'yicha kiyimning barcha assortimenti uch sinfga bo'linadi:

- **Maishiy** – turli maishiy va ijtimoiy sharoitlarda kiyish uchun;
- **Ishlab chiqarish** – iqtisodiyot turli tarmoqlarining ishlab chiqarishsharoitlarida kiyish uchun;
- **Formali** – harbiy xizmatchilar, turli idoralar xizmatchilari va forma kiyishibelgilab qo'yilgano'quvchilar kiyimi;

Maishiy kiyimning ishlatilish sharoitlari bo'yicha bo'linishi 3-rasmdakeltirilgan.

² [Arindam Basu](#). Advances in Silk Science and Technology// England 2015.

Maishiy kiyimning ishlatilish sharoitlari bo'yicha bo'linishi:
<ul style="list-style-type: none"> • Ustki kiyim – korset buyumlari, ich kiyim va kastyum-ko`ylak guruhi buyumlari ustidan kiyiladigan
<ul style="list-style-type: none"> • Ich kiyim buyumlari – tanaga zarur bo`lgan gigiyenik sharoitlarni yaratish uchun ich kiyimlar;
<ul style="list-style-type: none"> • Korset buyumlari – tananing ba'zi qismlarini shakllantirish va ushlab turish uchun bevosita tanaga kiyiladigan buyumlar;
<ol style="list-style-type: none"> 1. Bosh kiyimlar – boshni yopib turuvchi buyumlar;
<ul style="list-style-type: none"> • Qo`lqop buyumlari – bevosita tanaga kiyiladigan bilak va qo`lning pastki qismini berkitadi;
<ul style="list-style-type: none"> • ro`mol-sharf buyumlari – bosh va (yoki) bo`yinni berkitib turadi

2- rasm. Maishiy kiyimning ishlatilish sharoitlari bo'yicha bo'linishi³

Ishlab chiqarish kiyimlari bajaradigan vazifasiga ko'ra kichik sinflarga bo'linadi:

- **maxsus** – ishlayotgan odamni xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari (yuqori harorat, zaxarli bo'lmagan changdan, mexanik ta'sirlardan, suv, ishqor, kislotalar, neft va neft mahsulotlari, toksik moddalar)dan himoya qilish uchun;
- **sanitar** (texnologik) – mehnat predmetlarini ishlayotgan odamdan va ishlayotgan odamni umumiy ishlab chiqarishdagi kirlanish va ifloslanishdan saqlash uchun; uning bir ko'rinishi texnologik (mehnat predmetlarini himoyalash uchun) deb hisoblanadi.

Yoshi va jinsiy belgilari bo'yicha kiyimlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- erkaklar kiyimi;
- ayollar kiyimi;
- bolalar kiyimi.

XULOSA VA MUNOZARA

Texnologik nuqtai nazardan, mahsulotdan foydalanish uchun uning barcha qism va detallari mutanosib ravishda birlashtirilgan bo'lishi kerak va shundan tikuvchilik buyumlarini tayorlashda qo'llaniladigan choklarni birlashtirishning ko'plab usul va yo'sinlari mavjuddir.

³ Жабборова М.Ш. -Тикувчилик технологияси // -Т.: -Ўқитувчи, 2014.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Мурыгин В.Е., Чаленко Е.А. Основы функционирования технологических процессов швейных производства. - М.: Компания Спутник, 2011.
2. Arindam Basu. Advances in Silk Science and Technology// England 2015.
3. Grace I. Kunz. Apparel Manufacturing: Sewn Product Analysis//Amerika 2014. PrenticeHall, english.
4. Julie Cole, Sharon Czachor. Professional Sewing Techniques for Designers// Angliya, 2014.
5. Жабборова М.Ш. -Тикувчилик технологияси|| -Т.: -Ўқитувчи||, 2014.
6. Серова Т.М., Афанасьева А.И., Илларионова Т.И., Делль Р.А. Современные формы и методы проектирования швейного производства: Учебное пособие. - М.: МГУДТ, 2014. -283с.